

XX ASRNING 20-YILLARIDA LOTIN ALIFBOSINI SHAKLLANTIRISHGA
BO‘LGAN URINISHLAR

Yangibaeva Nazira Gulmanovna,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 20-yillarida matbuotda tilshunos olimlarning lotin alifbosini shakllantirishga bo‘lgan urinishlari haqida so‘z boradi. Bu erda nafaqat tilshunos olimlar, balki maktab o‘qituvchilari, hamda tilga qiziquvchi boshqa soha vakillarining ham, shuningdek, davlat arboblarning ham alifbo to‘g‘risidagi fikr mulohazalari berilgan. \

Kalit so‘zlar. Arab, lotin, alifbo, unli, undosh, sheva, cho‘zg‘i, loyiha, harf, ovozlar, harfiy birikmasi, bosit, somt.

Аннотация. В статье рассматриваются попытки ученых-лингвистов сформировать латинский алфавит, отраженные в печати 1920-х годов XX века. В ней представлены не только взгляды ученых-языковедов, но и мнения школьных учителей, представителей других профессий, интересующихся языком, а также государственных деятелей по вопросам алфавита.

Ключевые слова: арабский, латинский, алфавит, гласные, согласные, диалект, долгота, проект, буква, звуки, буквенное сочетание, басит, сомт.

Abstract. The article discusses the attempts of linguists to develop a Latin alphabet as reflected in the press of the 1920s. It presents not only the views of linguists, but also the opinions of school teachers, representatives of other fields interested in language issues, as well as those of public and state figures regarding the alphabet.

Keywords: Arabic, Latin, alphabet, vowel, consonant, dialect, length (long vowel), project, letter, sounds, letter combination, basit, samt.

Kirish. Matbuotda o‘zbek tiliga moslashtirilgan lotin alifbosi loyihalari dastlab 1926-yil iyul (№5) oyida “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida bosilib chiqdi. Bu loyiha 1926 yil 19,20,21 may kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan Ilmiy Kengash (hozirgi til bilan aytganda Ilmiy-amaliy seminar) tomonidan qabul qilingan. Unda arab va lotin yozuvidagi unli va undoshlar moslashtirilgan edi.

Unlilar: (u “ovozlar” va “cho‘zg‘i” harflar deb yuritadi):

و (yo‘g‘on) – o (qol); و (ingichka) - o (køl); و (uzun) -u (qyv); و (qisqa)- u(kyl); ا- (alif), a (at); ه- (hoji havvaz)ə (mən); ا- (qld), ا- i (kirdi); ا- e(ber).

Undoshlar: (u shunchaki «harflar» deb yuritiladi): ب - B, b (bar) پ - P, p (apa); ت - T, t (taz); ژ, ز -z (zanzal); چ -c (sac); خ -x (xalq); د -d (dəvlət); ر -r (er); س -s (sar); ش -z (qz) (Bu so‘z “qish” deb o‘qiladi.); غ - oʻ (Bu harf hozirgi “g”ni ifoda qilgan.) (ooʻl); ف -f (fitrət); ق -q (aq); ك -k (kəjlək); گ -g (gəzəl) ك -n (tañ); ل -l (qul); م -m (səmərqənd); ن -n (nan); و -v (vobkənd); ه -h (bahar); ی -j (jol).

Tadqiqot metodi. Bu loyihadagi aksariyat harflar keyinchalik qabul qilingan alifboda o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, uning jiddiy kamchiliklari bor edi. Ular quyidagilar:

1. Unlilar uchun harf belgilashdan avval o‘zbek adabiy tili uchun tayanch bo‘ladigan dialektni aniqlab olish zarur edi.

2. Bu loyiha o‘zbek yozuvining barcha nozikliklarini to‘la ifoda qila olmagan. Jumladan, «uzun» «qisqa» deb yuritilgan «vov» harfining lotincha ekvivalentini bir xil

«u» harfi bilan ifodalanmoqda. Ehtimol, bu nashriyot xatosidir. SHunday bo'lsa-da, unililarni ifodalovchi harflarni tanlash tamoyillari (prinsiplari) aniqlab olinishi lozim edi.

3. Undoshlardan «shin» uchun olingan z, «jim» uchun olingan z harfi, «g'ayn» uchun olingan z harfining qo'llanishiga asoslar berilmagan.

Ushbu alifboning kamchiliklari 1926-yil 11-avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Ilmiy Markazida atroflicha muhokama qilinib, yuqorida biz ta'kidlagan o'rinlar tanqid ostiga olingan. Unda quyidagilar keltirilgan:

- may oyidagi Ilmiy Markaz loyihasi «singarmonizm qonuniga tamoman rioyat qilmag'an»;

- قول, گول so'zlaridagi «qisqa zamma»larga birgina harf olingan, boshqa cho'zg'ilarga (unlilarga) ikki harf olingan;

- turkiy tillar imlosiga ko'ra, alif juft harf (tovush) bo'lishi lozim edi, loyihada uch shakl olingan (bu erda A, a, ə ko'zda tutilmoqda);

- har bir xalqning harfi va imlosi o'z tilidagi fonetik tizimiga (savtiy asos) muvofiq bo'lishi lozim, shuning uchun fors tilidan o'zlashgan Ā (A) ortiqcha (ya'ni transkripsiyada ko'rsatadigan bo'lsak – «آ»);

- arab harflaridan lotinga o'tishdan maqsad imloni engillatish va aksariyat Evropa mamlakatlarida qo'llanib kelgan asl lotin harflarini olish edi. Loyihada esa ruscha **u, g** harflari, slavyancha **g** va shuningdek ə harflari qabul qilingan. Bu belgilar faraziy shakllar deb yuritilgan;

- boshqa turk o'lkalarida tuzilgan alifbolar (lotin) e'tiborga olinmagan, shuning uchun u loyiha noqis topilgan.

Bu tanqidiy fikrlarda ma'lum darajada nazariy va amaliy asoslar bor edi. Jumladan, turkiy tillarning asosiy fonetik qonuniyati singarmonizmni qabul qilish va qabul qilmaslik to'g'risida bir qaror qabul qilmasdan turib, alifbodagi unililar tizimini belgilab bo'lmas edi. Qolaversa, lotinlashtirish bo'yicha tajribalar tahlil qilinmasdan, mavqei jihatdan yuqori shaxslarning loyiha bo'yicha takliflari o'tib qolishi ehtimoli bor edi. Shu jihatdan bildirilgan yuqoridagi tanqidiy mulohazalar o'rinli bo'lgan.

Natijalar va ularning muhokamasi. Ilmiy Markazning avgust Kengashi yana bir loyihani tasdiqladi. Unda o'zbek shevalarida 12ta cho'zg'i (unli) bor deb hisoblandi va unililar 2 guruhga bo'lindi: juft (jub yozilgan) va toq unililar. Avvalgi loyihadan jiddiy farq qilgan holda unililar uchun quyidagi harflar tavsiya etildi:

ä - ʌ (hoyi havvaz) (gäl, sämän), ö - ʊ (köl, özbek), ü - ʉ (sür, büyräk), iy- ɨ (murakkab) (tiymək, kiymək), a - ʌ (at, taş), o - ʊ (toq, qol), u - ʊ (suv), ʌ (qʌn), e - ɨ (el), bu loyihada ham jiddiy kamchiliklar bor edi, jumladan harflarda ikki nuqtalarning ko'payib ketishi nashriyot ishlarida noqulaylik tug'diradi, iy – harfiy birikmasi ham muvaffaqiyatsiz, ayniqsa, orqa qator (transkripsiyada) unli uchun «آ» harfining berilishini tushunish qiyin edi. Toq unli sifatida «e» unlisi bilan birga uv –harfiy birikmasi to'g'risidagi taklif ham ilmiy asoslanmagan edi. To'g'ri, loyiha mualliflari (ular ko'rsatilmagan) ikki nuqtaning

qo'llanishini asoslashga harakat qiladilar, ya'ni bunday tajriba boshqa turkiyyotchilar tomonidan qabul qilingan va matbaada bor deb ko'rsatadilar. Orqa qator «Ы» unlisi uchun «Д» belgisini ilojisizlikdan kiritishgan ko'rinadi, chunki qalin uzun kasra (Ы) uchun lotinchada shakl yo'q degan jumlaning keltiradi.

Ushbu loyiha Karmanalik Usmoniy degan shaxs tomonidan jiddiy tanqidiy mulohaza yuritishiga sabab bo'lgan. Usmoniy (uning shaxsi to'g'risida ham ma'lumotga ega emasmiz) unilarning 10 ta (u juft unilarni ko'zda tutgan) belgilanishiga hojat yo'qligini isbotlashga harakat qiladi. Uningcha, qol-kol, qul-kul, qildi-kirdi so'zlaridagi o, u, i harflari bir tovushni ifoda qiladi. Shu tufayli unilarni 8taga tushirishni taklif qiladi. Negadir, u yuqoridagi loyihada A, a, ä harflari haqida fikr yuritadi. Bunda A harfini saqlab qolishga tavsiya beradi, demak, hozirgi transkripsiyadagi ъ, а, ә (ä) harflarining shevalarda mavjudligini e'tiborga olgan bo'lsa kerak. Usmoniy 8ta shakl haqida fikr yuritadi, lekin 7 harfnigina (A, a, ә, o, i, e, i) ko'rsatadi. Undoshlardan ڭ uchun z, چ uchun s, چ uchun ç, ك uchun k, ق uchun q belgilashni tavsiya etadi. Bu fikrlarni Usmoniy «matbuot ishlarini osonlashtirmoq», «alifbo tahsilini ham engillashtirmoq» g'oyasi bilan bog'laydi. Shu jurnalda Usmoniy takliflariga Abdulla Alaviy «YAngi loyiha» degan maqolasida rad etuvchi fikrlarni bayon qilgan.

Bu maqolasida Abdulla Alaviy shu maqolaga izoh berishni maqsad qilib qo'yadi va Usmoniyni o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatini yaxshi tushunmaganlikda ayblaydi. Yuqorida ko'rdikki, Usmoniy singarmonizmni yo'qotgan o'zbek shevalari nuqtai nazardan fikr yuritib, ö-o, ü-u, i-i kontrast unilarni emas, o, u, i unilarini olish tarafdori bo'lgan.

Abdulla Alaviy Ilmiy Markazning avgust Kengashi loyihasining asosli ekanligini ta'kidlaydi va uni turkiy tillarning asosiy xususiyati deb biladi va u bu masalada xulosa qilib: «... o'rtoq Usmoniyning «o'zbek tilida bu tovushlar (ö-o, ü-u, i-i) bir xilda aytiladir» degan fikri faqat ortiq daraja eronlashgan o'zbek shevalari haqidag'ina to'g'ridir» («Maorif va o'qitg'uchi», 1926, №6) deydi. Ma'lum bo'ladiki, 20-yillar uchun Usmoniyning fikri jiddiy tanqid qilinsa-da, XX asrning 2-yarmida haq bo'lib chiqdi va o'zbek tilida singarmonizmni yo'qotgan shevalardagi unilardan kelib chiqib grafika tanlandi.

Abdulla Alaviy lotin alifbosi uchun unli harflarni belgilashda o'zbek tili uchun singarmonizmli shevalarning tanlanishini asoslaydi, uningcha:

- singarmonizmli shevalar «chig'atoy turkchasining zamonlashgan bolasi»;
- «chig'atoy turkchasi» asrlar davomida adabiy til vazifasini bajargan;
- turkiy tillar singarmonizm qonunini saqlab kelmoqda;
- «soyit (unli) tanlashda ozarboyjondan ajralmaslik kerak». (lekin u ayrim tovushlarni ifodalashda ilmiylik uchun ozarboyjondan farqlanganligini ko'rsatadi).

Faqat unilarni tanlashda ozarboyjondan ajralish kerak emasligi to'g'risida fikri asossiz edi.

Xulosa. Demak, Abdulla Alaviy o‘zbek alifbosi singarmonizmni aks ettirishi lozimligini ko‘rsatadi. (Abdulla Alaviyning singarmonizm to‘g‘risidagi fikrlari keyingi bobda maxsus tahlil qilinadi).

1926 yil may oyida e‘lon qilingan lotin alifbosi loyihasining ayrim muhokamalaridan so‘ng «Ilmiy Markaz» 1926 yil 27-29 avgust Kengashida o‘zining qarorini e‘lon qilgan va yangi loyiha «Maorif va o‘qitg‘uchi» jurnalining shu yilgi 7-8-soni(sentyabr-oktyabr)da «Til va isloh» maqolasida e‘lon qilingan, afsuski, bu loyiha ijodkorlarining ismi-shariflari ko‘rsatilmaydi. Unlilarni ular **bosit cho‘zg‘i** deb yuritishgan: ا - a (at, baz, taz), o - o (gəl), و - o (qol, jol), u - o (kəl, o‘zbek), u - u (qul, tuz), y - y (gyl, tyr), i - i (ilm, kirim), e - e (ber, kel), q - (qldm, qlq); Undoshlar: (ular **somt tovushlar** deb yuritishgan – YA.N.): g - گ, h - ه, j - ج, q - ق, k - ك, m - م, v - و, x - خ, z - ز, b - ب, c - چ, z - ج, d - د, f - ف, n - ن, p - پ, r - ر, s - س, z - ش, t - ت va apostrof.

Apostrofning qo‘llanishi chet so‘zlar bilan bog‘lanadi: mäs’el, mə’lëm.

Shuni ta’kidlash lozimki, keyingi davrda grafika bo‘yicha yaratilgan ishlarda bir necha loyihalar keltirilgan bo‘lsa-da, yuqoridagi loyiha tilga olinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. «Maorif va o‘qitg‘uchi», 1926, avgust №6. - B. 37.
2. «Maorif va o‘qitg‘uchi» jurnali, 1926, №6, avgust.
3. X.A.Djamalxanov. Основы узбекской графики.- Tashkent: FAN.,1991. - S. 22.

